

BADASH MUSIQA SAN'AT

Ikromov Azizbek Akmalovich

*Termiz Davlat Unversiteti madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish yo`nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: ushbu maqolada o'zbek milliy raqsi san'at haqida so'z boradi Qadim Xalqimizning yillar davomida saqlanib qolgan etno yodgorliklari va Badash xalq kuyi haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: baxshichilik, nola, ashula, lazgi, nama, kuy, ohang, chanqovuz, sibiziq, tanbur, rubob

O'zbek milliy musiqasi juda boy tarixga ega. Asrlar davomida milliy musiqamizning maqom, lazgi, katta ashula, baxshichilik singari turlari shakllanib keldi. So'nggi tadqiqotlarimizga ko'ra, Surxon vohasida milliy musiqamizning badash deb nomlangan yo'nalishi borligi aniqlandi. Quyida ana shu yo'nalish haqida so'z yuritmoqchimiz.

Badash – ohang, kuy, nola, nag'ma (na'ma) singari to'rt usulning birgalikda daf (doira) orqali ifodalanishidan hosil bo'ladi. Har bir usul bir nechta komponentdan iboratdir.

Ohang – 3-7 yoshdagi bolalar, maktab yoshidagi bolalar, balog'at yoshiga yetgan qizlar, katta yoshdagi ayollar, yigitlar va yoshi ulug' erkaklarning ovoz chiqarib qo'shiq aytishiga aytiladi. Ijrochilarning yoshi va jinsiga qarab jami 6 komponentdan tashkil topgan.

Kuy – tanbur, chang, rubob, dutor, afg'on rubobi, qonun changi singari cholg'u asboblari tomonidan chiqariladi. Unda ishlatiladigan musiqa asboblari soniga qarab u ham oltita komponentdan tashkil topadi.

Nola – og'izga qo'yib chalinadigan musiqa asboblari – chanqovuz, sibiziq (sibizg'a), xushpulloq (loydan qilingan og'izdan puflanib aytiladigan cholg'u asbobi) va nay tomonidan chiqariladi. Ba'zan uni chanqovuz nolasi yoki nay nolasi deb ham ataladi. Nolada ishlatiladigan musiqa asboblari soniga qarab to'rtta komponentdan tashkil topgan deb hisoblash mumkin.

Nag'ma – do'mbira, rubob, g'ijjakning chalinishidan hosil bo'ladi. Do'mbira nag'masidan chiqqan kuy ashula bilan birga yangraydi. Unda uchta musiqa asbobi ishlatiladi. Shu bois u uchta komponentdan iborat bo'ladi.

Xullas, badash – jami 19 ta komponentdan tashkil topgan. Ta'kidlash kerakki, kuyda ham, nag'mada ham rubob ishlatiladi. Ammo bundan komponentlar soni 18 ta ekan deb xulosa chiqarmaslik kerak. Negaki, badashning asosiy cholg'u asbobi doira hisoblangan. Doira bilan birga badash 19 ta qismdan iborat bo'ladi.

Dala tadqiqotlariga ko'ra, XX asr o'rtalariga qadar badashni Ko'hitang xatakilari ijro etib kelishgan. Qadimda badashning 70 ga yaqin turi mavjud bo'lgan ekan. Shulardan 50 ga yaqin turi doira bilan ijro etilgan. Doira badashidan bizgacha faqat o'nga yaqin turi yetib kelgan. Mazkur holatdan kelib chiqib, doira badashini xatakilar musiqa san'ati yo'nalishida asosiy tur bo'lgan, deb hisobladik.

Doira badashi boshqa joylardagi doira usullaridan ancha farq qilishi bilan ajralib turadi. Jahon musiqasida do, re, mi, fa, so, lya, si, do notalari bor, Ko'hitang xatakilarining doira badashida bu vazifani «bij-don-da, bij-don-bij» sadolari bajaradi deyish mumkin. Boshqacha aytganda, qadimiy ajdodlarimiz Yevropada nota ixtiro qilingan paytlardan ilgari yoki undan nari-berida doira badashini ijro etish uchun alohida o'ziga xos «nota» o'ylab topgandirlar, ehtimol! Muallif bilan suhbatda bo'lgan oliy ma'lumotli musiqa mutaxassisleri badash kuylarini Yevropa notasiga tushirishga urinib ko'rdilar, ammo natija chiqmadi. Bu, demak – yana bir bor badash ijro etiladigan «nota» o'ziga xos noyob tuzilishga egaligini ko'rsatadi.

Badashning asosiy cholg'u asbobi doira (daf) hisoblanadi. Badashda ishlatiladigan doira qo'y terisidan qilinadi. Negaki, faqat qo'y terisidan qilingan doira bilan muayyan notaga tushirilgan jaranglagan ovoz, ya'ni bijdonba, bijdonbij kabi sadolar chiqadi.

Badash aytadigan ayol qizil satindan parpar yoqali ko'ylak va lozim kiyib, qasaba deb ataladigan bosh kiyimi ustidan oq shalpat ro'mol yopingan. Oyoqlarida sadaf tugmali no'g'ay kavush bo'lgan. Besh poyalik isirg'a osilgan ikkala quloq atrofidagi soch gajakdor qilib qo'yilgan. Bo'ynida esa xapavand (hapamad) munchoq yarashib turadi, ko'ylak yoqalariga jahak tikib, ustidan yaltiroq tunukadan yasalgan tugmalar parpar ko'ylaklarning yoqasidan quyigacha zeb beradi.

Badash san'ati Navro'z va hosil bayramlarida, sunnat va nikoh to'ylarida ijro etilgan. Buning uchun katta va tekis maydon tayyorlab qo'yilgan. Kechqurunlari maydonning o'rtasiga katta gulxan yoqilgan. Maydonning bir tomonida erkaklar turishgan. Bu yerda kurash musobaqasi o'tkazilgan. Uni xatakilar olish deyishgan. Avval yosh bolalar, so'ngra yoshi kattalar davraga tushib kuchini sinab ko'rishgan. Maydonning boshqa tomonida esa ayollar to'la aylana shaklni hosil qilib badash ijro etishgan. To'yga ayollar o'z doirasi bilan kelishgan. 20-30 va hatto 50 tagacha ayol doira chaladi. Shuncha doiradan bir takt bo'lib chiqayotgan tekis va salobatli zarblar kishi ruhiyatiga o'zgacha ta'sir qilib, uning kayfiyatini ko'taradi. Barmoq va kaftlar zarbidan doira tegrasidagi sanoqsiz nuqra va mis xalqachalar tiniq jaranglab doira badashining jozibasini yanada oshiradi. Doiralardan maromli ritmda taralgan jozibali va jarangdor «bij-don-ba, bij-don-bij» sadolari uzoq-uzoqlarga eshitilib turadi. Bu – doira badashi. Doirani umumiy maromga qo'shib chala olmagan ishtirokchi davradan chiqarib yuborilgan. Doira sadolari ostida raqsga tushgan boshqa ayollar katta sholpat ro'molning uchlarini qo'llari bilan goh so'lga, goh o'ngga bir maromda

tashlab o‘ynaganlar. Ba‘zan yog‘och qoshiqlar bilan raqs tushishgan, unda soch o‘rish, o‘sma qo‘yish, keskan osh pishirish, oynaga qarash kabi xarakterlar ham aks etgan.

Nikoh to‘ylarida esa badash boshqacharoq o‘tkazilgan. Unda kelin otga mindirilib kuyovning uyiga olib ketilayotgan vaqtda badashchi ayollar xuddi paraddagidek uch qator bo‘lib turishgan va kuyovning uyiga qadar doira chalib borishgan. To‘ylar shu tariqa o‘ziga xos go‘zal bir suratda o‘tgan. Badash ijro etilgan vaqtda har qanday odam uning ta'siri ostida juda katta badiiy-estetik zavq olgan, ma'naviyati boyigan. El badash san'atida mehr-muruvvat, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, halollik, poklik, tantilik, ya'ni, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan barcha insoniylik fazilatlarini o‘z aksini topgan deb bilgan. Qo‘shni ovul va qishloqlardan to‘y-hashamga kelgan mehmonlar hayratlanib, «xatakilarning zab san'ati bor ekan-da», deyishgan.

Doira badashida faqat ayollar ishtirok etishi asosiy qoida edi. Unda kayvoni ayollardan biri boshlovchilik qilgan. Erkaklarning ayollar bilan birga raqsqa tushishiga ruxsat etilmagan. Erkaklar maydonning boshqa tomonidan turib badashni ko‘rib, undan zavq olishlari mumkin edi.

Badash bilan bog‘liq bayram va to‘ylarda qarsak chalish odati bo‘lmagan. Negaki, faqat motam marosimida, ya'ni o‘lgan odamning mayiti ustida ayollar qarsak chalib yig‘laganlar. Qarsak motam udumi bo‘lganidan badashda ishlatilmagan.

Shu o‘rinda badash san'atining favqulodda ulkan va ta'sirchan tarbiya vositasi bo‘lganligini ham yaqqol kuzatish mumkin: masalan, badash orqali odamlarga mavsumiy ishlar o‘rgatib boriladi, mehnat qilish yo‘llari ko‘rsatiladi, kelgusida qiladigan ishlari eslatib turiladi, shuningdek, aholi o‘rtasidagi turli mojaro, urish-janjallarni qon to‘kmasdan tinch yo‘l bilan hal etish vositalari aytib turiladi va hokazo...

Qadimda qoshiqlarning ham ramziy ma‘noga ega ekanligini har bir qushiq bir maqsadda yaralganini kurishimiz mumkin shunday ekan biz yoshlar qadimdan saqlanib kelayotgan madaniy yodgorliklarimizni asarashimiz kerak

ADABIYOTLAR

1. Sayfullayev B., Yo‘loshva S., Eshonqulov J., Ashirov A., Toshmatov O‘. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san’ati an’analari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Navro‘z, 2017.
2. O‘zbek milliy folklor san’ati va etnomadaniy qadriyatlar. O‘quv qo‘llanma. - T.: Navro‘z, 2014.
3. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi, 2017.